



**BASKETBOL VOSITALARI YORDAMIDA TASHKILIY-METODIK USULLARINI
ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI TAJRIBALAR YORDAMIDA
TEKSHIRISH**

Xudayberganov Otabek Erkinovich

Urganch davlat pedagogika instituti

“Jismoniy madaniyat” kafedrası dotsenti

Xudayberganov-O@mail.ru

Baxramov Umrbek Anvarbek o`g`li

Urganch davlat pedagogika instituti magistri


Annotatsiya: Ushbu maqolada muammoli o`qitish usullaridan foydalangan holda, basketbol vositalari orqali talabalarda kasbiy va pedagogik ko`nikmalarni shakllantirish mexanizmlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: mexanizm, tezkor harakatlar, takroriy mashq usuli, kasbiy ko`nikmalar, basketbol, jismoniy sifatlar.

Аннотация: В данной статье описаны механизмы формирования профессионально-педагогических навыков у студентов средствами баскетбола с использованием проблемных методов обучения.

Ключевые слова: механизм, быстрые движения, многократный метод тренировки, профессиональные навыки, баскетбол, физические качества.

Abstract: This article describes the mechanisms of formation of professional and pedagogical skills of students through basketball tools using problem teaching methods.



Keywords: *mechanism, rapid movements, repeated training method, professional skills, basketball, physical qualities.*

Dolzarbligi. Bo`lajak pedagoglarni tayyorlash tizimini takomillashtirish muammosi bugungi kunda butun dunyoda juda dolzarb, unga turli mamlakatlarning oliy ta`limni islox qilish xujjatlarida alohida e`tibor qaratishmoqda.

Shunga ko`ra ta`lim jarayonini unda faqat bilim va ko`nikmalargina emas, balki bo`lajak kasbiy faoliyatning bo`lajak sub`ekti shaxsi ham shakllanadigan tarzda loyihalashtirish va ro`yobga chiqarish zarurligi takidlanayapti. Ta`lim jarayoni o`qish va o`rganishga ijobiy motivatsiya xosil qilish, o`z-o`zini takomillashtirish va rag`batlantirishga yo`naltirilmog`i lozim.

Shug`ullanuvchilar organizmi va psixikasiga ta`sir ko`rsatish samaradorligi yuqoriligi bilan ajralib turadigan o`yinlarning vositalari va o`ziga xos xususiyatlaridan bo`lajak pedagogik kasbiy ta`limi jarayonida foydalanish shunday tayyorgarliklarning yo`nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ishning maqsadi. Pedagogika OTM talabalarining sportga munosabati bo`yicha (basketbol misolida) mativlari va qadriyatlari yo`nalishini, ulardagi o`zgarishlarning xususiyatlarini aniqlash maqsadida 2022-2023 o`quv yili mobaynida UrDPI jismoniy ma`daniyat yo`nalishi talabalarida pedagogik tajriba o`tkazildi. Unda 30 nafar talaba ishtirok qildi, har bir guruxda 15 kishidan iborat nazorat va tajriba guruhlari taqsimlandi.

Pedagogik tajriba boshi va oxirida shug`ullanuvchilarning ichki quvvat imkoniyatlari aniqlandi. Basketbol o`rganuvchilarining muayyan faoliyatiga yo`naltirish va muayyan ehtiyojlarining qondirishi tekshirildi.



Pedagogik tajribada jismoniy madaniyat yo`nalishi yuqori kurslarining 70 nafar talabasi orasida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan so`rovnoma asosida ixtisoslik bo`yicha faoliyat olib borish xohish yo`qligi eng muhim sabablari aniqlandi. So`rovnoma bo`yicha takroriy savol-javob, pedagogik tajriba oxirida basketbol bilan shug`ullanuvchi 30 nafar talaba orasida o`tkazildi.

Basketbolga o`rgatishning birinchi yili ikkinchi semestrndan nazorat va tajriba guruhida pedagogik ko`nikmalari shakllantirishga doir maxsus topshiriq va mashqlardan foydalaniladi, tajriba guruhida yana pedagogik yo`nalishi elementlari bo`lgan muammoli o`qitish metodlari ham qo`llanilgan bo`lib, ularning mohiyati mashg`ulot o`yinari sharoitida shug`ullanuvchilar oldiga harakat vazifalarini qo`yishdan iborat edi. Vazifalarning yechimi u yoki bu texnik usullar hamda vositalarni topshirish talab qilardi.

Mazkur tajribani o`tkazishda ikki xil vazifa belgilandi.

- 1) Muammoli o`qitish usullaridan foydalanib o`tkaziladigan mashg`ulotlarning talabalarda pedagogik ko`nikmalarni shakllantirishga ta`sirini aniqlash;
- 2) Muammoli o`qitish usullarining tanlangan turiga bo`lgan munosabatga hamda o`qitish jarayoniga ta`sirini aniqlash.

Tajriba metodikasi tarkibiga o`qituvchi-murabbiyning faoliyati haqidagi nazariy ma`lumotlar kiritildi, unda kasbiy ko`nikmalarning ma`nosi va mohiyati, ularning shakllantirish xususiyatlari ochib berildi. Talabalarga muntazam ravishda muayyan ko`nikmalarni shakllantirishga qaratilgan maxsus ishlab chiqilgan topshiriqlar tavsiya qilindi.

Taklif etilgan topshiriqlarning bajarilishi talabalarni muayyan vazifalarni hal qiladigan o`qituvchi-murabbiy holatiga tushirishni nazarda tutdi. Taklif etilgan topshiriqlarning kasbiy ko`nikmalarni egallash bosqichlariga muvofiq ravishda tizimli hamda izchil bajarilishiga ahamiyat berildi.



Ajralib ko`rsatilgan ustuvor ko`nikmalarning shakllanganlik darajasini muntazam nazariy qilish tashkil etildi.

Tajriba ishlari boshida va oxirida nazariy hamda tajriba guruhlarida ekspertlar guruhi yordamida kasbiy ko`nikmalar shakllanganlik darajasining miqdoriy ko`rstikchlari qo`lga kiritildi. Dastlabki va so`ngi ko`rastikchlarni taqqoslash nazorat hamda tajriba guruhlaridan o`quv faoliyatining samardorligi xususida fikr yuritish imkonini berdi.

O`tkazilgan tadqiqotlar natijalariga tayangan holda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- mashg`ulotlar boshlanganidan so`ng bir yil o`tgach, pedagogika yo`nalishining o`rtacha darajasi 5.1% pasaydi. Nazorat guruhida ballarning o`rtacha yig`indisi 5,4% ga, tajriba guruhida 5,6% ga pasaydi. Pedagogika yo`nalishi darajasining umumiy pasayishini ikki xil sababi bilan izohlash mumkin: birinchidan, bu daraja birmuncha oshirib ko`rsatilgan, negaki shug`ullanuvchilar basketbolni mustaqil tarzda tanlaganlar; ikkinchidan ularning hech biri oldin basketbol bilan shug`ullanmagan va demak, uch ijobiy ta`siriga, jiddiy muvoffaqiyatlarga erishish imkoniyatlariga ma`lum daraja keragidan ziyod baho berishga moyil edi. Ancha yuqori yuklamalarga ega mashg`ulotlar va musobaqalarga qatnashgan sari talabalar tilga olingan omillarni bir muncha tushinib baholash imkoniga ega bo`ladilar. Nazorat hamda tajriba guruhlarida ballarning pasayishi deyarli bir xil, bu shug`ullanuvchilarning tanlangan turiga munosabatiga muammoli o`qitishning ta`siri bo`lmaganligi (mazkur bosqichda) xaqida xulosa qilishga asos beradi;

- shug`ullana boshlaganlarning ko`pchiligida grafik test vositasida aniqlangan harakat faolligiga bo`lgan katta ehtiyoj basketbol bilan shug`ullanishning boshlanishiga mativlardan biri hisoblanadi. Bu ehtiyojning birinchi yil oxirida biroz pasayishi (nazorat guruhida ham, tajriba guruhida ham bir xil) mashg`ulotlar natijasida uning qondirilganidan dalolat beradi.



Muammoli o`qitish faollikka bo`lgan ehtiyojlarning qondirilmasligi tufayli zo`riqish darajasi pasaydi. Bu ayniqsa yaxshilikka bo`lgan ishonch ehtiyojida, faol harakat qilish, muvaffaqiyatlarga erishish ehtiyojida aks etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алексеенко О.И., Даниленко Т. В., Кирий Е. В. Проблемы обучения и воспитания студентов в современном вузе. // Современное педагогическое образование. №3. -2018.
2. Белых С.И. Теоретические и методические основы профессиональной подготовки будущих преподавателей физической культуры и спорта в личностно ориентированной системе физического воспитания. - Донецк, 2020.
3. Расулев А.Т. Баскетбол.// Олий ўқув юртлари учун дарслик. ЎзДЖТИ нашриёт бўлими 1998.-278 бет.